DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18143538

SA’DULLA HAKIM LIRIKASIDA PEYZAJ TASVIRI

Ravshanova Odina Farxod qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi, 1-kurs magistranti
oravshanova7@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yetuk adib, mohir publisist Sa’dulla Hakim she’riyatida tabiat tasviridan mahorat bilan foydalanilganligi, insonning fazilatlari, ichki kechinmalari tabiat unsurlari orqali ko‘rsatilganligi, Vatanga, tabiatga bo‘lgan muhabbati haqida fikr yuritiladi. Zamondoshlarining shoir she’riyatiga bo‘lgan e’tibori haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Sa’dulla Hakim, she’riyat, peyzaj, lirika, shoir, Vatan, adabiyotshunoslik.*

KIRISH

Odamzod azaldan tabiat bilan yashab, u bilan hamnafas bo‘lgan. Shu sababli bo‘lsa kerak inson ruhiyati ham doimo tabiat bilan aloqador. Masalan, kimdir yomg‘ir yog‘ishini ko‘rib qalbi quvonchga to‘lsa, kimdir eski xotiralari tufayli qayg‘uga botadi yoki birov shamol esishini qalban his qilib undagi shiddat yo mayinlikdan bahra olsa, yana kimdir uni buzg‘unchilik talofat elchisi deb biladi.Xullas, tabiat hodisalarini har kim o‘z bilganicha ba’zida kayfiyatidan, ba’zan xarakteridan kelib chiqib talqin qiladi.

Badiiy asarda ham tabiat muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi yoki shoir tabiat tasviri orqali asardagi qahramon ruhiyatini ifodalaydi. Ilmiy uslubda esa bunday tasvirlash peyzaj deb yuritiladi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ‘peyzaj ta’rifi xususida shunday deyilgan: “Adabiy asarda yaratiluvchi voqelikning muhim komponenti,

voqealar kechuvchi ochiq va yopiq makon tasviri peyzaj deyiladi. Peyzaj tasviri rassomchilikdan boshlangan va u yerdan adabiyotga o‘tgan.[9] tabiat haqida so‘z yuritar ekan: “Tabiat va inson munosabati g‘oyatda qadimiy hamda doimiy jarayon. Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bag‘rida yashaydi. Odam tabiatdan qancha uzoqlashsa, ruhan o‘shancha yupunlashadi, yomonlik va yovuzlik hislariga ko‘proq mag‘lub bo‘ladi. Tabiat bag‘ri inson uchun ham, hayvon uchun ham ochiq. Tabiat- bu, avvalo hayot, tiriklik tantanasi. Ruh va go‘zallik manbasi sifatida u sira tuganmas hamda Zamonaviy o‘zbek she’riyatida inson kechinmalari va peyzaj uyg‘unligi katta ahamiyat kasb etadi. Hayot mavjud ekan, tabiat doimo insonga hamrohlik qiladi. Bu esa she’riy misralarda ham aksini topadi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul chegarasizdir. Uning o‘zi shoir, musavvir va tengsiz me’mordir. Tabiat bilan bog‘liq so‘z, rang, ohang va tasvir unga mos bo‘lmog‘i kerak.” degan fikrlarni aytib o‘tadi.[10]

Peyzaj lirikada ikki vazifani bajaradi: u bir tomondan, real voqelikni, atrof muhitni tasvirlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan shoir tuyg‘ularini, uning ichki kechinmalarini ifoda etadi. Masalan, shamol, tong, quyoshning ko‘tarilishi yoki botishi, yomg‘ir, erta ko‘klam kabilar insonning orzu-umidlarini, yasharishlikni, sog‘inchini aks ettiradi. Tabiat manzaralari lirikaning ajralmas qismiga aylangan. O‘zbek she’riyatida Alisher Navoiydan tortib, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Sa’dulla Hakimgacha bo‘lgan ko‘plab shoirlar lirik asarlarida peyzajdan mahorat bilan foydalanganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA.

Peyzaj badiiy adabiyotda kitobxonni voqealar rivoji aks etayotgan zamonni, muhitni his qilishi uchun o‘ta muhim unsur hisoblanadi. Tabiatni sevgan, uni qalban eshita olgan o‘quvchigina yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan tuyg‘uni his qila oladi. Adabiyotshunos olimlar A.I.Belitskiy va V.E.Xalezevlar ham:“Peyzaj rivojlanishi odamda tabiat tuyg‘usining rivojlanishi bilan bog‘liq”,- deb ta’kidlab o‘tishgan.

Sa’dulla Hakim ijodiga nazar tashlar ekanmiz I.G‘ofurov, Q.Yo‘ldoshev, N.Komilov, S.Umirov, A.Otaboyev, T.Eshbekov, A.Jumaqulov, X.Yodgorov,

X.Salimov, D.Xoldorov va boshqa olimlar o‘rganganliklarini ko‘ramiz. Adibning “Nurota tog‘lari”, “Jiyda pishig‘i”, “Saraton”, “Tungi taqqoslar”, “Bahor”, “Oydin kecha”, “Tumanli dara”, “Xamal”, “Sadaqayrag‘och”, “Oqib o‘tdi yulduz to‘la tun”, “Gul bargi” va boshqa she’rlarida peyzaj tasviridan o‘rinli foydalangan.

Sa’dulla Hakim tabiat lirikasining go‘zal namunasi bu “Saraton” she’ridir. She’r nomini o‘qigandayoq, shoirimiz yozning issiq va qaynoq kunlari bo‘lgan saraton tasvirini qanday ifoda etar ekan, degan ishtiboh ko‘nglimizdan o‘tadi. She’r boshlanmasidan tasvirdayoq shoir o‘quvchi diqqatini torta olgan:

Tirnoqday g‘ubor yo‘q.
Osmon bir yorug‘.
Tonglar ichra otar sara tong.

Shoir saratonning tonggini ham boshqa tonglardan sara ekanligini ta’kidlamoqda.

Ko‘k gumbazi go‘yo ulkan sariq tom,
Lovullaydi falak toqida gulxan.
Toblar, eritar quyoshni yombi oltinday,
Falakka o‘t qo‘yar Saraton.[2]

“Sara tong”, “sariq tom” sifatlariga e’tibor qiladigan bo‘lsak, shoir bizni ohistalik bilan “saraton” tasviriga yetaklayotgandek. Ko‘k gumbazini sariq tomga, quyoshni gulxanga qiyoslagan shoir saraton quyoshini yombi oltinday eritish uchun falakka o‘t qo‘yayotganini ifoda etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shoirning lirik asarlaridagi peyzaj tasvirlarini aniqlash va ularning mazmunini tahlil qilish uchun matn tahlili metodi, tabiat obrazlarining ramziy - emotsional ma’nolarini ochib berishda struktural, tabiat

obrazlarining ramziy va ma’no qatlamlarini ochib berishda semantik tahlili metodlaridan foydalanildi.

NATIJALAR.

Tabiat tasviri Sa’dulla Hakim she’riyatining eng qabariq jihatlaridan, shoirning eng go‘zal tashbehlari, kuzatuvlari asosidagi hikmatli fikrlari tabiat bilan bog‘liq.

Holat holdan nishondir,
So‘zimdan dard to‘kildi.
Kuz kelibdi ishondim,
Ko‘zimdan barg to‘kildi.[5]

Shoirning “Xazonrezgi” she’rida kuz fasli va inson ruhiyatining tasvirini yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Kuz faslidagi ob-havoning o‘zgaruvchanligi, daraxtlardagi barglarning to‘kilishi, insonning ko‘z yoshlariga, uning holatiga go‘zal tashbehlar orqali ko‘chirilgan.

Sa’dulla Hakimning aksariyat she’rlarida tabiat hodisalari insondan tashqaridagi borliq sifatida emas, balki hamisha u bilan birga bo‘ladigan, hatto she’rning ichidan joy olgan yaratiq kabi tasvirlanadi.

Yarim tunda ko‘z ochsam
Yonimda yotibdi oy.
Sochlari-nur yomg‘iri,
Yuzlari-tiniq shirmoy.

“Oydin tunda”she’rida nurday tiniq va bo‘ronday qudratli tuyg‘ulari sabab oy yuzida dog‘ qoldirgan shoir sezimlarining yirikligi o‘quvchiga xush keladi. Shoirning bir she’ridagi favqulodda istaklar shu sabab she’rxonni hayron qoldiribgina qolmay, hayratga soladi:

Yo‘lbarsning qo‘ynida uxlagim kelar,
Kiyikning qulog‘in tishlagim kelar.
Vasling otashida kuyib kul bo‘lib,
Hajring ayozida qishlagim kelar.[6]

Shoir “Oy siniqlari” she’rida tasvirlaganidek: “Tuyoq izlari yomg‘ir suviga to‘ldi, O‘tloqqa to‘kildi oy siniqlari,-deya oyni sindirib yerga tushiradi va siniqlarini mayna yaproqlariga qo‘ngan shudringlarga sochib yubora oladi.

“Ko‘klam navosi” she’rida shoir tabiat hodisalarini ajoyib jonlantirish orqali tavsvirlaydi.Bahor faslining kirib kelishi,faslning ilk kunlarini mahorat bilan satrlarga chizadi:

Muz libosin ming kiyar,
Qish baribir mung kiyar.

Bo‘z avrasin ag‘darib,
Yer gul to‘nin o‘ng kiyar.

Nuqra xol, oy bezakli
Ko‘ylagini tun kiyar.

Hamaloyim bir baxmal,
Bir zar mursak, teng kiyar.[6]

MUHOKAMA.

Odamni tabiatga xos xususiyatlar egasi qilib tasvirlash an’anasi she’riyatda azaldan bor. Sa’dulla Hakim esa o‘z she’rlarida ko‘proq tabiatni odamga xos sifatlar bilan

ziynatlaydi. Unda ro‘y beradigan o‘zgarishlarni xuddi odamlararo munosabatlardagi sabab-oqibat aloqalari kabi izohlaydi va bu uning bitiklariga xos tarovat va oxor baxsh etadi.

Osmon yerni qizdek quchib yotardi,
Shivirlaydi suyib, erkalab kulib.
Tongda xushbo‘y gullar tug‘ildi sarxil
Osmon singari pok,
Yer kabi suluv.

Quyidagi yana bir ajoyib she’rni o‘quvchiga havola etamiz:

Panja urib tut shoxlariga,
Ado etgach tayammum shartin,
Yashil bargni bilib joynomoz
Hamd ayturlar qushlar saf tortib.

Imom bulbul boshlar qiroat
Tushar yetti falakka larza
Qushlar shodon qoqarlar qanot,
Takbir aytib musulmonlarday.

Oshiq bulbul, mastu mard bulbul,
Qon yuragin ufqqa otar…
Oppoq tutlar-sitilgan tasbeh
Donalar, sochilib yotar.

Shoirning “May bomdodi” she’rida odamzotning ibodat vaqtidagi holati tabiatga ko‘chirilib go‘zal va ta’sirli uyg‘unlikni ifoda etgan. May oyi tut daraxtining yashil tusga kirib, mevasining g‘arq pishganligining ayni vaqtidir. Daraxt shoxlariga tizilib qo‘ngan qushlarga, ularning podshohi bo‘lgan bulbulning imom bo‘lishi, yashil barglarning joynamoz qilib tasvirlangani o‘qiguvchida ajib bir hissiyot uyg‘otadi.

Sa’dulla Hakimning bolaligi, yoshlik yillari Jizzax viloyati Forish tumani Garasha qishlog‘ida kechgan. Uning ba’zi she’rlarida, jumladan, “Nurota tog‘lari”, “Garasha desam” kabilarda shoirning qishlog‘iga uning so‘lim tabiatiga mehr-muhabbatini ko‘ramiz. Bunga “Garasha desam” she’rini misol qilishimiz mumkin:

Necha yillar o‘tib, so‘z ochsam hanuz,
Tilimga rost kelar Garasha desam.
Qirlari og‘amday, giyohi singil,
Har toshi do‘st kelar Garasha desam.

Chopqir suvlarida tushlarim oqqan,
Uzumi bol berib, onamday boqqan.
Qizlari ko‘ksimda ming olov yoqqan,
Gul isli noz kelar Garasha desam.[6]

Barchamizga ma’lumki, Forish tumanining uzumlari yurtimizning barcha go‘shalariga mashhur. Shoir qishlog‘ining bolday shirin uzumini onasidek boqqanligini, qirlari-yu giyohi og‘asi va singlisidek yaqin ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, Sa’dulla Hakim lirikasida peyzaj tasviri muhim badiiy-estetik ahamiyatga ega. Tabiat obrazlari shoir ijodida ruhiy holat ifodasi, falsafiy mushohada vositasi va milliy tuyg‘ularni aks ettiruvchi timsol sifatida namoyon

bo‘ladi. Sa’dulla Hakim she’rlarini mutolaa qilar ekanmiz, aslida she’rlari sharhga ham muhtoj emasligini, she’riyatining sodda, xalqona ruhda ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Sa’dulla Hakim atrofi olam va undagi narsa hodisalarni boriday emas, o‘ziga ko‘ringaniday tasvirlay olgani va bunga o‘quvchini ishontira olgani uchun uning qalamidan chiqqan satrlar yuraklarga yetib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullayeva M. Zamonaviy o‘zbek lirikasida tabiat obrazi. Toshkent. 2018
2. A. Alimbekov. So‘z chamani ichra navo ko‘rguzib. Adabiyot. Toshkent-2022.
3. D. Quronov. Adabiy tanqid va badiiy tafakkur. Toshkent: Fan, 2007.
4. G. To‘xtayeva. Lirik peyzaj va shoir ruhiyati munosabati. Ilm va adabiyot. Samarqand. 2020.
5. Sa’dulla Hakim zamondoshlari xotirasida. Sharaf bilan yashalgan umr. Sharq. Toshkent-2022.
6. S.Hakim. Yurt o‘g‘loni. Toshkent. “Mashhur-Press”-2019
7. S.Hakim ijodiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami. Toshkent:Fan,2012
8. w.w.w. ziyouz.com-O‘zbek adabiyoti namunalari va tahliliy maqolalari.
9. Sh.Normatova. Badiiy asarda peyzajning inson ruhiyati bilan bog‘liqligi.Ilmiy maqola.
10. I.Sobirova. XXI asr o‘zbek she’riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg‘unligi.Maqola. 2025.